

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMI

**Халилходжаева Шахноза Ғафуровна**

*Тошкент имконияти чекланган шахслар учун ихтисослаштирилган*

*1-сон касб-хунар мактаби Безнис асослари фани ўқитувчиси*

**Умарова Гулжаҳон Эрдановна**

*Математика фани ўқитувчиси*

**Annotatsiya:** *Maqolada mamlakatimizda hozirgi kunda soliqlar soliq tizimini modernizatsiya qilishning kontseptual asoslarini takomillashtirishning ahamiyati va maqsadga muvofiqligi, davlatning zamonaviy soliq ma'muriyati nuqtai nazaridan hozirgi davrning xususiyatlari va muammolari k o'rib chiqiladi. Iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashning moliyaviy asoslarini mustahkamlash, samarali amalga oshirishning ustuvorligi davlat fiskal vazifalarini, xususan, davlat byudjetiga soliq tushumlarini takomillashtirishning kontseptual asoslarini yaratish zarur.*

**Kalit so'zlar:** *Maburiy to'lovlar, milliy iqtisodiyot, xavfsizlik, iqtisodiy jinoyatlar, iqtisodiy jinoyatlar, yagona soliq to'lovi, yagona soliq to'lovi.*

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan mutanosib ravishda tubdan isloh qilindi va hozirda milliy an'analar va ilg'or jahon tajribasini o'z ichiga olgan soliqlar amal qilmoqda. Soliq tizimida aholining Real daromadlari o'sishiga ko'maklashadigan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan keng ko'lamlı soliq islohotlari amalga oshirildi.

Ayniqsa, byudjet va soliq tizimini liberallashtirish jarayoni iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'ldi. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" da [1], "soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatini takomillashtirish va tegishli rag'batlantirish choralarini kengaytirish siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifadir.

Ushbu vazifalar "yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi" da yanada qat'iy va har tomonlama belgilab berildi: "...soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliqni takomillashtirish bo'yicha kursni davom ettirish ma'muriyat va tegishli rag'batlantirish choralarini kengaytirish [2]" muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining soliq siyosati sohasidagi ustuvor yo'nalishi o'rta va uzoq muddatli istiqbolda byudjet barqarorligini ta'minlaydigan samarali va barqaror soliq tizimini yaratishdir. Soliqning asosiy maqsadi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash siyosati bo'lib qolmoqda, shu jumladan uni rag'batlantirishga qaratilgan yangi imtiyozlar berish, soliqni qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotning Real sektoriga investitsiyalar, ta'lim va sog'liqni saqlash.

Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining eng muhim omili byudjet tizimining muvozanatini saqlash zarurati hisoblanadi. Shu munosabat bilan, barcha darajadagi byudjetlarning daromad qismini shakllantirish muammosi keskin bo'lib, soliq tizimini tezda isloh qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, muvozanatli byudjet tizimining talablarini hisobga olgan holda, uning maqbul darajasiga erishiladigan iqtisodiyot tarmoqlarida soliq yukining o'zgarmasligini ta'minlash kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq fuqarolar qonunda belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lashga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning davlat tomonidan belgilangan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamasligi, foyda (daromad)ni yoki soliq solinadigan boshqa o'bektlarni, kamaytirib ko'rsatishi, shuningdek, soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan o'zga tarzda, jumladan, nazorat-kassa mashinalarining fiskal xotirasi xizmati dasturini noqonuniy o'zgartirish yo'li bilan qasddan bo'yin tovlashi byudjet siyosati barqarorligiga putur yetkazadi.

Soliqdan yashirilgan mablag'lardan, aksariyat hollarda, jamiyat manfaat-lariga zid ravishda foydalanilishi soliq qonunchiligi sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfliligini oshiradi.

Bundan tashqari, soliq turlaridan bosh tortish, boshqa qonun buzarliklar sodir etish yashirin iqtisodiyot shakllanishi uchun zamin yaratadi, bozor munosabatlari rivojlanishi va faoliyatiga to'sqinlik qiladi, byudjet siyosatining barqarorligini buzadi, jamiyatda ijtimoiy keskinlik va siyosiy beqarorlikni vujudga keltiradi. Buning hammasi tahlil qilinayotgan qilmish iqtisodiyot sohasida sodir etilayotgan eng og'ir jinoyatlardan hisoblanishini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan tahlil etilayotgan jinoyatning bevosita obekti soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash yuzasidan o'rnatilgan tartibni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Soliqlar deganda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi (SK 12-m. 1-q.).

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;

9) yagona soliq to'lovi;

10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Qonunda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashning ijtimoiy xavfiligi soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lashga oid majburiyatni qasddan bajarmaslikdan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga pul mablag'lari tushmay qolishiga olib keladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan boshqa tarzda qasddan bo'yin tovlash soliq to'lovchining davlat soliq xizmati organlariga soliq hisoboti hujjatlarini yoki soliq qonunchiligiga muvofiq taqdim etilishi shart bo'lgan boshqa hujjatlarni qasddan taqdim etmaslikdan iborat har qanday boshqa qilmishlarida ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003 yil 6 iyundagi "Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarning sudlar tomonidan qo'llanilishi haqida"gi 6-sonli qarorida foyda (daromad)ni qasddan yashirishning quyidagi belgilari qayd etilgan:

☒ hujjatlarni soxtalashtirish (o'chirish, g'ayriqonuniy tuzatish); qalbaki boshlang'ich buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;

☒ foydalanilmagan moddiy xarajatlarni ishlab chiqarish hisobiga qo'shib hisobdan chiqarish;

☒ korxonada ishlamaydigan, lekin hisobda turadigan xodimlarga ish haqi yozish yo'li bilan mehnatga haq to'lash xarajatlarini oshirish;

☒ sotishdan olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o'tkazish (sotish hajmini va daromad (foyda)ni qasddan kamaytirish);

☒ moddiy, yoqilg'i-energetika resurslari xarajatlarini va amortizatsiya (eskirish) miqdorini sun'iy ravishda oshirish yoki normativ (limit)larni noto'g'ri qo'llash;

☒ hujjatlarni yo'q qilish yoki ularni taqdim etishni rad etish;

☒ buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlar bilan tegishli ravishda rasmiylashtirilmagan mahsulot (tovar)larni sotish;

☒ davlat ro'yxatidan o'tmasdan va soliq organlarida hisobda turmasdan xo'jalik faoliyatini yuritish;

☒ davlat soliq xizmati organining yozma bildirgisi mavjud bo'lgani holda ikki va undan ortiq manbalardan daromad oluvchi jismoniy shaxslar tomonidan barcha daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etmaslik va boshqalardir.

Byudjet intizomini buzish – byudjet talablariga rioya etmaslik natijasida byudjetda asossiz taqchillik paydo bo'lishi, talab qilingan vositalar, mablag'lar bilan muhtoj bo'lgan muassasa va tashkilotlarni ta'minlanmasligi. Byudjet intizomini buzish davlat mablag'larini samarali, to'liq natija bilan va o'z o'rnida ishlatishga imkon bermaydi. Buning natijasida aholining alohida qatlamlari orasida boqimandalik, norozilik muhiti shakllanadi, o'tkazilayotgan islohotlarni jamiyat idrok qilishiga salbiy ta'sir qiladi, ularni obro'sizlantiradi. Byudjet intizomini buzish foyda (daromad) yoki

solliq solinadigan boshqa ob'ektlarni yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'implarni, boj yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashda ifodalanadi.

Ma'lumotga ko'ra, o'tgan 9 oy davomida Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi muassasalari tomonidan byudjet intizomini buzish holatlari 18,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan qonunbuzilish holatlari 9,8 mlrd.so'mga (2 marta) ko'paygan. Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi tizimi tashkilotlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlari 12,1 mlrd.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 10,4 mlrd. so'mga (7 marta), Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimidagi muassasalarida aniqlangan qonunbuzilish holatlari 6,6 mlrd.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 3,5 mlrd.so'mga (2 marta) ko'paygan. Shu bilan birga, hisobot davrida Sog'liqni saqlash vazirligi muassasalarida aniqlangan qonunbuzilish holatlari 10,2 mlrd. So'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan (10,7 mlrd. so'm) kamaygan bo'lsada, yirik miqdorda qonun buzilish holatlari saqlanib qolmoqda.

Moliyaviy yilda byudjet va smeta-shtat intizomini buzganlik uchun javobgarlikning turi va hajmi uning qanday miqdorda sodir etilganiga bog'liq bo'lib, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Quyidagi hollarda ma'muriy:

1. Moliya yilida byudjet va smeta-shtat intizomini buzish uncha ko'p bo'lmagan miqdorda sodir etilsa (30 dan 100 BHgacha); mansabdor shaxslarga jarima - BHning 3 dan 5 barobarigacha

2. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa yoxud ancha miqdorda sodir etilgan bo'lsa (100 dan 300 BHgacha); mansabdor shaxslarga jarima - BHning 5 dan 10 barobarigacha

Quyidagi hollarda jinoiy:

1. Moliya yilida byudjet va smeta-shtat intizomini buzish ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa (300 dan 500 BHgacha); BHning 50 baravarigacha miqdorda jarima yoki 1 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq jazosi.

2. O'sha qilmish juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa (500 BH va undan ortiq); BHning 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi.

Muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan hozirgi kunda mamlakatimizda bu kabi hodisalar sodir qilinishi kamaytirilishi maqsadida solliq tizimini isloh qilish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Solliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi PQ-4389-sonli qarori va shu kabi bir qator qonunlar shular jumlasidandir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 51-modda. 2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 28, 174, 184, 205, 209, 210-moddalari.
3. "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4389 sonli Qarori. 2019 yil 10 iyul.
4. "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 8-son Qarori. 2013 yil. 31 may.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 12-moddasi.
6. Asatullayev X.S., Kalandarov R.A. "Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy va xalqaro tizimi" fanidan O'quv-uslubiy majmua.-T.:TMI, 2019
7. <http://darakchi.uz/index.php/uz/76087>